

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi	203
X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
U.Yusupaliyev, T.Amirov	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari	222
N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi	229
I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili	237
F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi	240

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari	245
N.Abdullayeva, M.Davidov	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari	250
A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash	254
R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi	262

ILMIY AXBOROT

A.Bababekov	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil)	268
S.Ruziyeva	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari	274
O.Abobakirova	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati	278
D.Nasriyeva	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
I.Raufov	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari	287
N.Jumaniyazova	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili	290
E.Nasrullahov	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

ISAJON SULTON ASARLARIDA PRESEDENT BIRLIKLER LINGVOMADANIY VOSITA SIFATIDA

PRECEDENT UNITS AS LINGUOCULTUROLOGICAL TOOLS IN ISAJAN SULTAN'S WORKS

ПРЕЦЕДЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСАДЖАНА СУЛТАНА

Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva¹

¹Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva

– O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada benazir ijodkor Isajon Sultan badiiy nasrining o'ziga xos xususiyatlari, asarlarida qo'llanilgan barqaror so'z birikmalari, maqollar, she'riyatning badiiy matndagi o'rni, yozuvchining vogelikni tasvirlash uslubi hamda usullarida til vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritilgan

Annotatsiya

В данной статье обсуждаются особенности художественной прозы создателя Исаджана Султана, устойчивая лексика, использованная в его произведениях, пословицы, место поэзии в художественном тексте, а также умение писателя использовать языковые средства в своих методах и способах изображения действительности.

Abstract

This article discusses the unique features of the artistic prose of the unique creator Isajon Sultan, the stable word combinations used in his works, proverbs, the place of poetry in the artistic text, the writer's skill in using language tools in his methods and methods of describing reality

Kalit so'zlar: *til, milliy til, badiiy matn, badiiy asar tili, tadqiq va tahlil, tasvir usuli, uslub, til va madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy tushunchasi, presedent birliklar, intertekstuallik, maqollar, iboralar*

Ключевые слова: *язык, национальный язык, художественный текст, язык художественного произведения, исследование и анализ, метод изображения, стиль, язык и культура, лингвокультурология, лингвокультурологический концепт, прецедентные единицы, интертекстуальность, пословицы, выражения.*

Key words: *language, national language, artistic text, language of artistic work, research and analysis, image method, style, language and culture, linguistic and cultural studies, linguistic and cultural concept, precedent units, intertextuality, proverbs, expressions*

KIRISH

Til madaniyat xazinasi majmuyidir. U o'z qatida madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. Til – millatning millat sifatida shakllanishida muhim o'rinni tutuvchi beqiyos vosita. O'zligini namoyon qiladigan har bir xalqning ma'nnaviyati zamirida millat tili yotadi. Milliy tilimizda qiyofamiz, ma'nnaviyatimiz aks etadi. Ona tilimizda yozilgan asarlar tiliga nazar tashlar ekanmiz, undan milliy madaniyatimizning tom ma'nodagi yuklarini, dard-u alamlarini, quvonch-u iztiroblarini, urf-odatlariyu an'analarini, umuman milliy tilimizning barcha go'zalliklarini topamiz.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili haqidagi ilk qarashlar, uni tadqiq va tahlil qilish qadimgi yunon faylasufi Aristotel nomi bilan bog'liq (1, 27). Badiiy asar tili ijodkorning o'z xabarini minglab kitobxonga yetkazishi uchun foydalanadigan muloqot kodi sanaladi. Ushbu xabarning bir qismi estetik mohiyatga ega bo'lib, u o'quvchida hissiyotlarni, fikrashlarni va muallif tomonidan nazarda tutilgan boshqa talqinlarni qo'zg'atishi kerak. Rus tilshunosi I.A.Yefimov (2, 5) "Til vositalari va ularning qo'llanilishi asarning g'oyaviy mazmunini mukammal darajada ifodalagandagina badiiy ijod mukammallikka erishadi", - deb yozgan edi. Isajon Sultan asarlarining jozibador tili ham har bir kitobxon qalbida xuddi shunday talqin va tavsiflarni uyg'otishi tabiiy. Biz ushbu maqolamiz orqali yozuvchining ko'z ilg'amas tasvir usullari bilan yaqindan tanishamiz.

Bilamizki, badiiy matnlarda yoritilgan mavzular doirasi cheklanganligiga qaramay, ularni ochib berishda foydalaniladigan vositalar cheksiz va xilma-xildir. Shu bilan birga, har bir chinakam so'z san'atkori qalamdagisi hamkasblaridan ajralib turishga, nimanidir yangicha aytishga, kitobxonlar e'tiborini tortishga intiladi. Til dunyonidagi idrok etish va aks ettirishda xalqning tarixan rivojlangan xususiyatlarini, shu jumladan, uning majoziy aksini o'zida mujassamlashtirar ekan, tilning bu xususiyati, bevosita presedent birliklarning badiiy asar matnida mavjudligida namoyon bo'ladi.

Badiiy matn tilshunoslik va madaniyatshunoslikning haqiqiy tutashuv nuqtasi bo'lsa, presedent birliklar shu matn tarkibida ma'lum maqsadda singdirilgan, ko'pchilik uchun tushunarli va aniq bo'lgan, qisqartirilgan shaklda saqlangan g'oyalar, voqeа hodisalar, mashhur jumlalar va nomlardir. Tilshunos olma D.Xudoyberganova o'zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasida rus tilshunoslari Y.N.Karaulov, V.V.Krasnix, V.Maslovalarning fikrlarini umumlashtirib shunday yozadi: " Presedent birliklar - muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalar, jumlalar va matnlardir" (3, 87). Rus tilshunosligida presedent birliklarga doir tadqiqotlar XXI asrning boshlarida shakllangan bo'lsa-da, uning tub ildizlari XX asrdan boshlanganligi e'tirof etiladi va dastavval V.V.Vinogradov, Y.N.Tinyanov, V.M.Jirmunskiy, M.M.Baxtin va boshqa olimlarning nazariy qarashlari asosida o'rganilgan intertekstuallik g'oyalariga asoslanganligi aytildi (4, 1211). Professor M.Yo'ldoshev: "Muayyan badiiy matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir" (5) - deya intertekstuallik tushunchasiga ta'rif beradi. D.Xudoyberganova presedentlikni intertekstuallik tushunchasi bilan bog'liqligi, aniqrog'i, uning ichiga kiruvchi hodisa ekanligini aytgan: "Presedentlik intertekstuallikning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, til egalarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo'llanishi bilan xarakterlanadi (3,89)". Keltirilan ta'riflardan ko'rindan, presedent matn, presedent jumla, presedent nom va h.lar intertekstuallik bilan bir qatorda turuvchi hodisa sanaladi. Matn tarkibida o'z-o'zidan yoki ongli ravishda tanlanadigan, ma'lum nutq egalari uchun muhim va taniqli bo'lgan maxsus matnlarni qo'llash, ayniqsa, Isajon Sulton asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Isajon Sulton asarları bilan yaqindan tanishgan o'quvchi ijodkorning bevosita o'zbek tili lisoniy imkoniyatlarining barcha birliklaridan mohirona va o'z o'rnida foydalana olganligining guvohi bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matn dunyoga va tarixga munosabat sanalar ekan, yozuvchining olamni idrok etishi u yaratgan ijod mahsulida ko'rindi. Ijodkor asarlarida qo'llagan lingvokulturologik birliklar orqali milliy tilning estetik vazifasini to'liqligicha ochib beradi. Lingvokulturologiyada paremiologik birliklar sanalgan maqol va matallar eng qadimiy va faol tasviriy vositalardan biridir. Mumtoz adabiyotimizda boshdan-oxir maqol va matallardan iborat asarlar talaygina. Gulxaniyning "Zarbulmasal"i buning bir misolidir. Xalq og'zaki ijodida maqol va matallar maxsus tadqiq qilingan. Lingvomadaniyatshunoslikda ham ma'lum bir asar matnida paremiologik birliklarning o'rganilishi bilan bog'liq tadqiqotlar keyingi yillarda salmoqli o'rinni egallaydi. Maqollar va matallar – xalq donishmandligi in'ikosi. Ularning qatida ayni xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi, milliy mentaliteti, urf-odatlari-yu an'analarli, irim-sirimlari-yu boy hayotiy tajribasi yashirin. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov: "Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir"- deb bejizga aytmagan (6,5). Isajon Sulton asarları tilining jozibasi ham shunday birliklarda namoyon bo'ladi. Yozuvchining "Genetik" romani matnidagi presedent jumlalar - maqol, matal va iboralar bu jihatdan alohida diqqatga molikdir. Jumladan:

Qaysarroq kimnidir fe'lidan so'z ketsa, "Sut bilan kirgan - jon bilan chiqadi", deb ham qo'yishadi... (7,15.)

Xalq orasida ushbu maqol tez-tez uchraydi, ayniqsa, maqolning "Qon bilan kirgan – jon bilan chiqadi" ko'rinishidagi variantiga ko'proq duch kelamiz. Muallif romanda yetti xazinaning biri asalari va sigir haqida, ularning suti, uning shifobaxsh xususiyatlari, sut bilan bog'liq xalqning irim-sirimlari haqida kitobxonga atroflicha ma'lumot berib, inson psixologiyasiga ham to'xtaladi va yuqorida maqolni asar matniga singdiradi.Ya'ni kishining xulq-atvori va o'ziga xos tabiat, bola ona qornidaligidayoq yoki emizikli davrida shakllangan bo'lishi va to o'lguncha shu xarakter-xususiyat uni tark etmasligi ixcham, sodda, shaklan milliy, mazmunan universal bayon etilgan. Ijodkor odatda bu maqol hilm ahliga emas, asosan, fe'li og'ir insonlarga nisbatan qo'llanishini eslatgan.

-E, non-non deysiz? Nondan boshqa dardingiz yo'qmi?

... -Yo'q-da. Yo sizniki bormi? Bularning bari havoyi gaplar. Mingta shap-shapdan bitta shaftoli yaxshi deyishgan mashoyixlar.... (7, 110)

Xalqimiz azaldan serg'ayrat, har bir qilayotgan ishining tezroq bitishini va yangidan yangi g'oyalar paydo bo'lishini xohlaydi. Yozuvchi millatning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun xalqning paremiologik fondi orqali tilimizning fonetik xususiyatlaridan o'rinli foydalangan.

"Genetik" kitobi tarkibida berilgan "Yusuf va Zulayho" hikoyasidagi birliklarga e'tibor qarataylik:

Shunday ko'rkli qiz, har holda, bekordan bekorga ajrashmagandir, bir sababi bordir-u uyidagilar yopig'liq qozon yopig'lig'icha qolsin deb elga oshkor qilishmagandir? (7, 369)

Lingvokulturologiyada muayyan tilning milliy realiya birliklari sanalgan so'zlar maqollarda ham o'z aksini topadi. Qozon realiya birligi ishtirok etgan ushbu maqol o'zbek xalqining milliy uyro'zg'or buyumi sanaladi. Matnda presedent birlik tarkibida qo'llanib majoziy ma'no kasb etgan. Maishiy hayotda ro'y beradigan har qanday voqeа-hodisani elga oshkor qilmaslik, qolaversa, oila kabi muqaddas makon or-nomusini va obro'yini saqlab qolish, ortiqcha "dedi-dedi"lardan uzoq turish, qizning keyingi hayotini o'ylash kabi ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan ushbu presedent birlik o'zbek mentalitetiga xos xususiyatlardan birdir.

Bundan tashqari "Ota raqsi" hikoyasidan olingen ushbu parchada oilaning mustahkam qo'rg'on ekanligi, uning ham quvonchi ham tashvishi, kamchiligi-yu mo'lchiligi borligi tasvirlangan:

To'y marosimlarni aytmayapman.Balki o'z birodarlari davrasida raqsga tushgan bo'lsa bordir. O'z uyi – o'lan to'shqida, bolalari qoshida xursand bo'lib o'ynaganini aftyapman. (7, 357)

O'z uying va oilangning bag'ri keng, unda chin dildan erkin quvnaysan, xursandchiligungni bo'lishasan, qalbing xavotirdan yiroq va xotirjam bo'ladi. O'tmishda (ba'zilar) qovg'adan (giyoh, o't, o'landan) bo'yra, bordonga o'xshatib to'qib, undan ko'rpa-ko'rpacha o'rnida foydalanib, taglariga to'shab o'tirardilar. Mazkur maqol bilan: "Birovning uyida, yurtida yumshoq to'shakda o'tirganingdan ko'ra, tap-taqir o'lan to'shakda o'tirsang ham, o'z uying yaxshi", demoqchi bo'lgan (6, 464). Muallif o'z niyatini hikoya qahramonining ahvoli tang, ro'zg'orda yetishmovchilik bo'layotgan bir pallada ham har qalay yashash uchun o'z uyi, makoni borligini matnda presedent birlikni qo'llash orqali yoritib bergen.

Isajon Sulton "Ozod" falsafiy romanida presedent matnlardan unumli foydalangan. Ozod ismli bir yigitchaning sevgilisi uchun tog'lar bag'ridagi mo'jizaviy lolani olib kelish uchun yo'iga chiqib, ajoyib va g'aroyib voqealar guvohi bo'lganligi aks ettirilgan bu asarda Jaloliddin Rumiy, Boborahim Mashrab, Hazrat Alisher Navoiy, Ulug'bek Hamdam, Muso Toshmuhammad o'g'il Oybek, Shavkat Rahmon, Hamid Olimjon, Zulfiya, Muhammad Yusuf, Tilak Jo'ra, Iqbol Mirzo, Murod Muhammad Do'st, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqalar ijodidan iqtiboslar keltirilgan. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

Bo'ldum fano men tufrog' ichinda,
Bir dona erdim, ming dona bo'ldum.
Bir qatra erdim, cho'mdim dengizga,
Kirdim sadafga, durdona bo'ldim... (7,251)

Mashrab qalamiga mansub ushbu g'azal "Ko'rdirim yuzungni – devona bo'ldim, Aql-u hushimdan begona bo'ldim..." misralari bilan boshlanadigan she'rning davomi, qo'shiq qilib kuylanganligi sababli katta avlod vakillari tomonidan xirgoysi ham qilinadi. Asar matni bilan tanish kitobxongina muallif nima maqsadda ushbu misralarni keltirganining mantig'iga yetib boradi.

Asar xotimasida esa barchaga tanish bo'lgan, qayta - qayta murojaat qilinadigan Muhammad Yusuf she'ridan parcha keltiriladi:

Uyda yotibman-u sezib turibman,
Ko'kda ketayotir qushlar qaytishib.
Xayrlar yog'dirib qanotlaridan,
Xasta shoiriga vido aytishib.
Bor, mening uchun ham ularga qo'l qoq...
Lola, lolajonim, lolaqizqaldoq... (7,324)

Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq... misrsasi o'quvchiga tanish, kitobxon she'rning to'liq matnidan xabardor bo'lsa, millatning suyukli shoiri Shavkat Rahmon xotirasiga yozilganligining guvohi bo'ladi va romanda nima maqsadda keltirilganligini chuqurroq angraydi. Muallif intertekstuallikni ifodalash uchun to'g'ridan to'g'ri iqtibos keltirish hamda qayta hikoya qilish usulidan foydalangan. Biz keltirgan tahlillar, asosan, intertekstuallikni ifodalashning birinchi turiga mansubdir.

XULOSA

Har bir oldingi matnning ortida ona tilida so'zlashuvchilar ongida u tomonidan chaqirilgan o'ziga xos birliklar tizimi mavjud. O'ziga xos alohidaliklarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Isajon Sulton asarlari tilining ravonligi, sodda va samimiyligi, qimmati ham tilning tasvir vositalarini ayricha qo'llaganida, xalq tiliga yaqin ifodalarni singdirganida, urf-odatlar, irim-sirimlarini, madaniyati va turmush tarzini til va madaniyat mushtarakligi orqali tasvirlab bergenida, desak aslo xato bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гаспаров М.Л. Античная риторика как система / в сб.: Античная поэтика: Риторическая терия и литературная практика. – М., 1991. - С. 27
2. И.А.Ефимов. Стилистика художественной речи. – М., 1957.стр.5
3. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқики. – Тошкент. Фан, 2013. – Б. 87.
4. Bu haqda qarang: Гатауллина А.Ф. Прецедентные тексты в работах журналиста Салавата Хамидуллина. Журнал: Современные проблемы науки и образования.2015. Номер 1-1, стр.1211.
5. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқики: Фил.фан. д-ри дисс. – Toshkent, 2009.
6. Ш.Шомақсұдов, Ш.Шораҳмедов. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. – Б.5.
7. Sulton I. Genetik. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2018. – B.382.